



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
I-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	
TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH	30
Umarov Ravshanjon Gafurovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	36
Mamurov Doniyor Eldorovich	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI VA USULLARI	43
Ro'zimov Doniyor Soporboy o'g'li	
TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TAJRIBA BILAN QIYOSIY BAHOLASH	49
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
ЦИФРОВАЯ САМООРГАНИЗАЦИЯ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ	56
Мирвосикий Хилола Хабибулла кизи	
XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI	64
Z.Sh. Matniyozova	
DEVELOPMENT MECHANISMS OF EMBEDDED FINANCE SERVICES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN BASED ON OPEN BANKING	69
Khurramova Fotima Bakhodir qizi	
IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH SYNDICATED LOANS PROVIDED BY COMMERCIAL BANKS	76
Xudaynazarov Davrbek Abdullayevich	
TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLİYAVIY XAVFSIZLIGI: O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL	83
Babadjanov Shuxrat Atxamovich	
GREEN LENDING PRACTICED AMONG UZBEK COMMERCIAL BANKS: SURVEY- BASED ASSESSMENT OF READINESS AND CONSTRAINTS	90
Avazov Azizbek Ashurali o'g'li	
"YANGI O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY O'ZGARISHLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI	96
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
BARQAROR YASHIL INVESTITSİYALARNING QAYTA TIKLANUVCHI ENERGETIKA RIVOJIGA ROLINI VA HISSASINI TAHLIL QILISH: O'ZBEKISTON MISOLIDA	101
Zilola Kazakova	
HUDUD SANOATIDA KAPITAL VA MEHNAT RESURLARI SAMARADORLIGINI KOB-B-DUGLAS MODELİ YORDAMIDA BAHOLASH	113
Turayev Baxrom Ergashevich	



“MAHALLA BANKIRI” INSTITUTI DAVLATBANK HAMKORLIGINING OPERATSION BO‘G‘INI SIFATIDA: SAMARADORLIK MEZONLARI VA OPTIMAL YUKLAMA PARAMETRLARI	120
Nurmuratov Azamat Mamarizo o‘g‘li SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI YO‘NALISHLARINING AHOLI EHTIYOJLARIGA MOSLIGINI TADQIQ ETISH (URGANCH SHAHRI MISOLIDA)	127
Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RO‘YXATGA OLISHNING AGRAR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDAGI INSTITUTSIONAL ROLI	132
Shohujayeva Zebo Safoyevna Xolov Javlonbek Davronovich UZBEKISTAN KAK AKADEMIЧЕСКИЙ ХАБ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	138
Эргашева Шахло Тургуновна БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ КАК ИНФОРМАЦИОННАЯ ОСНОВА ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ ПРЕДПРИЯТИЯ	146
Маннапова Раъно Абборовна YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIIYAVIY, INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI QO‘LLABQUVVATLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MODELLARI: “3M-PLATFORMA” VA “SMART YOUTH BUSINESS ECOSYSTEM” KONSEPSIYALARI	154
Xojiyev Ma‘murjon Muxsinjon o‘g‘li RAQAMLI BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI	163
Begimqulova Sevara Nurmamatovna KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	169
Yusupov Muxiddin Soatovich Normaxmatov Fazliddin Nuriddin o‘g‘li OLIY TA‘LIMDA INNOVATSION MENEJMENT IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	177
Abdullayev Farhod Ozodovich “YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-AMALIY NATIJALARI	180
Jamshidbek Bobojonov QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KLASTERLARNING AHAMIYATI	184
Radjabova Mavluda Ergash qizi STRENGTHENING MAHALLA ENTREPRENEURSHIP THROUGH AN INTEGRATED ECOSYSTEM: FUNCTIONAL LINKAGES, DIGITAL COORDINATION, AND REGIONAL EVIDENCE	189
Zafarjon Odiljonovich Tuxtasinov MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA GENERATIV SUN‘IY INTELLEKT INFRATUZILMASINING NAZARIY ASOSLARI	195
Saidov Jaloladdin Allaberganovich KORXONALARDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	202
Mamajonova Surayyoxon Maxmudjonovna PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA INNOVATSION RIVOJLANISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARINI BAHOLASH METODIKASI	207
Tojiyev Sa‘dulla Muhitdinovich INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION IMPROVING ECONOMIC INCENTIVE AND RESOURCE-ALLOCATION MECHANISMS AS A FACTOR IN INCREASING THE EFFICIENCY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES: EVIDENCE FROM THE “TECHNOPARK” ENTERPRISE	213
Erkinova Umidakhon Ilhom qizi	



THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED RECRUITMENT SYSTEMS ON HIRING QUALITY	218
Mutalova Manzura Abdushukur qizi	
TOMORQA XO'JALIGI FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ NOQISHLOQ XO'JALIGI FAOLIYATINING TA'SIRINI IQTISODIY BAHOLASH	224
U.U.Nurullayev	
SHAHAR HUDUDLARIDA EKOLOGIK MONITORING TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	230
Asqarov Akmal Anvar o'g'li	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	235
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIVAVIY NATIJALAR AUDITI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI	240
Bekchanov Faxriddin Atabekovich	
MAHALLIY TURIZMNI RIVOJLANLANTIRISHNING TASHKILIYIQTISODIY MEKANIZMINING ASOSIY FUNKSIYA VA PRINSIPLARI	246
Xayrullayev Elbek Xayrulla o'g'li	
ЛИЗИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБНОВЛЕНИЯ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА: ФИНАНСОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ОГРАНИЧЕНИЯ.....	250
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH	261
Abdiraxmonov Farxod Arabboyevich	
HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH MEKANIZMLARINING NAZARIY MODELLARI	267
Jurayev Ismatulla Izzatullayevich	
FINANCIAL MODELS IN THE EDUCATION SECTOR: A COMPARATIVE INSTITUTIONAL ANALYSIS OF STATE, PRIVATE, AND MIXED FUNDING SYSTEMS	275
Imomov Inomiddin	
SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMI.....	281
Siddiqov Abdusalom Abdumalikovich	
NOAN'ANAVIY PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA MAZMUNI.....	292
Djumonov Dilshod Safarolievich	
URBANIZATSIYA SHAROITIDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASH MUAMMOLARI.....	302
Shodmonov Nurjaxon Shokir o'g'li	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI QO'LLAB QUVVATLASHNING IQTISODIY OMILLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	308
Reimbergenov Xurrambek Xushnudovich	
O'ZBEKISTONDA KO'CHMAS MULK BOZORI XIZMATLARINING HOZIRGI HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	314
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	321
Baxadir Adilchayev	
EKOLOGIK TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI	327
Ergasheva Mohinurxon Odilxon qizi	



BANK OPERATSIYALARI BO'YICHA ICHKI AUDIT AMALLARINING MAZMUNIIY VA USLUBIIY TAHLILI	331
Yuldashev Xurshidbek Mamirjonovich	
РАЗРАБОТКА И ПРИМЕНЕНИЕ МОДЕЛИ КОМПЕТЕНЦИЙ ДЛЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ СЛУЖАЩИХ	341
Гофурова Шахрибону Комол қизи	
INNOVATION-DRIVEN BUSINESS COMPETITIVENESS THROUGH DIGITAL TRANSFORMATION AND TECHNOLOGICAL CAPABILITY	349
Sarvinoz Asamova	
HUDUDIIY INVESTITSIIYA OQIMLARINI DIFFERENSIAL BAHOLASH ASOSIDA MINTAQAVIIY IQTISODIIY O'SISHNI MANZILLI RAG'BATLANTIRISH.....	359
Ismoilov Azizbek Rustamjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI BO'YICHA XORIJ TAJRIBALARI.....	368
Samiyev Mirkamol Amriddin o'g'li	
ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОЙ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ: СУЩНОСТЬ, РОЛЬ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	372
Матчанов Умирзак Сейтжанович	
O'ZBEKISTONDA YASHIL LOGISTIKA TAMOIYILLARI ASOSIDA MULTIMODAL TRANSPORT-LOGISTIKA KORIDORLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	379
Islomjon Jamshedovich Jamshedov	
YASHIL INVESTITSIIYALARNING HUQUQIIYINSTITUTSIONAL ASOSLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	389
Temirova Nozima Shuhrat qizi	
ELEKTRON SAVDO PLATFORMALARIDA MOLIIYAVIIY TAHLILNING ZAMONAVIIY YONDASHUVLARI VA XALQARO TAJRIBA	395
Amanqulova Muxlisa Narsafar qizi	
MEHNAT UNUMDORLIGI VA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI BAHOLASH.....	403
Rashidov Zuhridin Sanjar o'g'li	
MINTAQI IQTISODIIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA KLASSTERLASHNING ASOSIIY TAMOIYILLARI VA KONSEPTUAL ASOSLARI	408
Movlonova Dilrabo Nomoz qizi	
HUDUD IQTISODIIY TIZIMIDA INNOVATSION INFRATUZILMANING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH	412
Sapayev Sindor Qadamboy o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMDA KPINING AHAMIYATI VA UNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLARI.....	418
Botirjon Ergashov	
MO'YNA VA TRIKOTAJ MATERIALLARNI YOPISHTIRISH UCHUN SUVLI POLIMER YOPISHTIRUVCHI KOMPOZITSIIYA: TARKIBI, TAYYORLASH USULI VA XOSSALARI.....	424
Temirova Gulnoz Ibodovna	
Shodmonova Mijgona Salimovna	
SURXONDARYO VILOYATI TURIZM SALOHIIYATINI BAHOLASHNING KOMPLEKS MODELII.....	429
Mamatov Sardor Ilyosovich	
Rashidova Nargiza Orifjon qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA INTERNETMARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK TAHLILI VA EMPIRIK NATIJALAR	435
Pirmatov Oybek Shovkat o'g'li	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON KAPITALINI SAMARALI BOSHQARISH YO'LLARI	442
Raxmonov Shuxrat Shavkatovich	
PAXTA YETISHTIRISHDA QO'LLANILADIGAN BARQAROR QISHLOQ XO'JALIK AMALIYOTLARI: XALQARO ILMIY ADABIYOTLARNING TIZIMLI TAHLILI	447
Rashitova Nilufar Xatambayevna	
Mirkasimov Baxrom Ravshanovich	
Karimov Komiljon Xamidovich	
Abduvaliyeva Nilufar Muxamadnosir qizi	
RAQAMLI BANKLAR VA KIBERXAVFSIZLIK: ZAMONAVIY TAHDIDLAR VA HIMOA USULLARI	465
Abrorov Azizjon Akobirovich	
HUDUDLAR RIVOJLANISHI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH UCHUN XAVFSIZLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI	470
Xalilov Nurullo Xamidillayevich	
HUDUDIY INVESTITSIYA OQIMLARINI DIFFERENSIAL BAHOLASH ASOSIDA MINTAQAVIY IQTISODIY O'SISHNI MANZILLI RAG'BATLANTIRISH.....	476
Ismoilov Azizbek Rustamjon o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISH AMALIYOTINING TAHLILI.....	485
Jumaniyazova Feruza Rajabovna	
O'ZBEKISTONDA XALQARO EKOLOGIK MAJBURIYATLARNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI	491
G'ayratullayev Noxidxon Iqboljon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI TIJORAT RISKLARINI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	495
Sharipova Gulmira Toxirovna	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA TARKIBIY ELEMENTLARI.....	502
Rasuljonov Abu Bakr Abdumalik o'g'li	
SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA INVESTITSION LOYIHALARNI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI	507
Sarimsaqov Sherzod Xamidovich	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MUOMALASI VA ULARNING DAROMADLILIK XUSUSIYATLARINING MOLİYA BOZORI DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	512
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
KICHIK BIZNESNI MOLİYAVIY QO'LLABQUVVATLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ORQALI TADBIRKORLIK FAOLLIGINI OSHIRISH.....	518
Kamoldinov Davronbek Ikromjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TIBBIY TA'LIMNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: GORIZONTAL MODEL VA 2026-YILGACHA RIVOJLANISH PROGNOZI.....	522
Nazarov Baxrom Mustafayevich	
QURILISH XIZMATLARI BOZORINING IQTISODIY MOHIYATI, MAZMUNI VA XIZMATLAR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI	529
Shakarov Davron Ulashboyevich	
QISHLOQ JOYLARDA "AQLLI AGROTURIZM" VA RAQAMLI GEOAXBOROT TEKNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-INNOVATSION MODELLARI.....	537
Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi	
ATMOSFERA IFLOSLANISHINING QISHLOQ XO'JALIGI HOSILDORLIGIGA TA'SIRI: HUDUDIY STATISTIKA ASOSIDAGI PANEL TAHLILI VA METODOLOGIK MUAMMOLAR.....	542
Eshpulatov Dostonbek Boxodir o'g'li	



KORXONALARNING STRATEGIK RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	556
Rasulov Baxtiyor Bahodirovich	



KORXONALARNING STRATEGIK RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Rasulov Baxtiyor Bahodirovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Innovatsion menejment” kafedrası
Mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Korxonalar strategik rivojlanishini boshqarishning nazariy-uslubiy asoslari, zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda ularni takomillashtirish zarurati hamda strategik boshqaruv samaradorligini oshirish yo'nalishlari tadqiq etilgan. Raqobat muhitining kuchayishi, texnologik o'zgarishlarning jadallashuvi va bozor noaniqligining ortishi sharoitida strategik boshqaruv tizimini takomillashtirishning ahamiyati asoslangan. Strategik rivojlanishning mazmuni va asosiy yondashuvlari tahlil qilinib, korxonaning ichki salohiyatini tashqi muhit omillari bilan uyg'unlashtirishga asoslangan konseptual yondashuv taklif etilgan.

Kalit so'zlar: strategik rivojlanish, strategik boshqaruv, korxona, boshqaruv mexanizmi, strategik salohiyat, raqobatbardoshlik, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, strategik qarorlar.

Аннотация. Исследованы теоретико-методические основы управления стратегическим развитием предприятий, необходимость их совершенствования в современных экономических условиях, а также направления повышения эффективности стратегического управления. Обоснована значимость совершенствования системы стратегического управления в условиях усиления конкуренции, ускорения технологических изменений и роста рыночной неопределённости. Проанализированы содержание и основные подходы к стратегическому развитию, предложен концептуальный подход, основанный на согласовании внутреннего потенциала предприятия с факторами внешней среды.

Ключевые слова: стратегическое развитие, стратегическое управление, предприятие, механизм управления, стратегический потенциал, конкурентоспособность, организационно-экономический механизм, стратегические решения.

Abstract. The theoretical and methodological foundations of strategic development management in enterprises, the need for their improvement under modern economic conditions, and the key directions for enhancing the effectiveness of strategic management are examined. The importance of improving the strategic management system in the context of intensifying competition, accelerating technological change, and increasing market uncertainty is substantiated. The essence and main approaches to strategic development are analyzed, and a conceptual approach based on aligning an enterprise's internal potential with external environmental factors is proposed.

Keywords: strategic development, strategic management, enterprise, management mechanism, strategic potential, competitiveness, organizational and economic mechanism, strategic decisions.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda raqobat muhitining kuchayishi, texnologik o'zgarishlarning jadallashuvi, raqamlashtirish jarayonlarining kengayishi va bozor konyunkturasining o'zgaruvchanligi korxonalarning uzoq muddatli rivojlanishini samarali boshqarishni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda korxonalarning raqobatbardoshligini saqlash va strategik maqsadlarga erishish faqat joriy iqtisodiy natijalarni boshqarish bilan cheklanib qolmay, mavjud resurslar va ichki salohiyatdan uzoq muddatli istiqbolda samarali foydalanishni talab etadi. Korxonalarning strategik rivojlanishi tashqi muhit o'zgarishlariga moslashish, ichki imkoniyatlarni safarbar etish, investitsion va innovatsion faollikni kuchaytirish hamda barqaror raqobat ustunliklarini shakllantirish bilan uzviy bog'liq.

Shu nuqtayi nazardan, strategik boshqaruv jarayonini faqat rejalashtirish va nazorat funksiyalari bilan cheklash emas, balki tashqi muhitni strategik tahlil qilish, ichki salohiyatni baholash, maqsadlarni belgilash,



resurslarni optimal taqsimlash, strategik qarorlarni amalga oshirish va natijalarni monitoring qilishni qamrab olgan yaxlit tizim sifatida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tizimli, resursga asoslangan va jarayonli yondashuvlarni o'zaro uyg'unlashtirish korxonaning mavjud imkoniyatlarini bozor talablari bilan muvofiqlashtirish hamda strategik qarorlarning natijadorligini oshirish imkonini beradi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, investitsion faollikni oshirish, innovatsion va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, xususiyl sektorning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish hamda korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar strategik boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Xususan, mamlakatni uzoq muddatli rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan bo'lib, ular qatorida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, investitsion faollikni oshirish va kuchli iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan vazifalar belgilangan.

Mazkur vazifalar korxonalar darajasida ham strategik boshqaruvning yangi yondashuvlarini shakllantirishni talab etadi. Jumladan, korxonalarda strategik maqsadlarni aniq belgilash, ularni moliyaviy va investitsion resurslar bilan ta'minlash, innovatsion-texnologik rivojlanishni rag'batlantirish, raqamli boshqaruv vositalaridan foydalanish va strategik natijalarni KPI asosida muntazam baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda strategik boshqaruv mexanizmi tashqi muhitdagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda moslashuvchan xususiyatga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga, amaliyotda korxonalarning strategik maqsadlari bilan mavjud resurs va imkoniyatlarini yanada uyg'unlashtirish, strategik rejalashtirish va joriy boshqaruv o'rtasidagi uzviylikni mustahkamlash, investitsion va innovatsion imkoniyatlarni baholash mexanizmlarini takomillashtirish strategik boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlari hisoblanadi. Mazkur yo'nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar korxonalarning tashqi muhit o'zgarishlariga tezkor moslashishi va uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Korxonalarning strategik rivojlanishini boshqarishda nazariy yondashuvlarni tizimlashtirish, ularning amaliy imkoniyatlarini baholash va korxona ichki salohiyatini tashqi muhit omillari bilan uyg'unlashtiruvchi konseptual yondashuvni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotning maqsadi korxonalarning strategik rivojlanishini boshqarishga oid nazariy yondashuvlarni tizimlashtirish va ular asosida strategik rivojlanishni boshqarishning zamonaviy, moslashuvchan va integratsiyalashgan konseptual yondashuvini shakllantirishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalarning strategik rivojlanishini boshqarish masalalari menejment nazariyasida keng o'rganilgan bo'lib, mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar strategik maqsadlarni shakllantirish, raqobat ustunliklarini yaratish, tashqi muhitga moslashish va resurslardan samarali foydalanish masalalarini qamrab oladi. Xorijiy tadqiqotchilar orasida M. Porter korxonalarning strategik rivojlanishini raqobat muhiti bilan bog'lab, tarmoqdagi raqobat kuchlari va raqobat strategiyalari asosida uzoq muddatli ustunlikka erishish konsepsiyasini ishlab chiqqan [1]. I. Ansoff strategik boshqaruvni korxonaning tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashishi va o'sish strategiyalarini tanlash jarayoni sifatida talqin etib, strategik rejalashtirishning nazariy asoslarini shakllantirgan [2]. H. Minsberg strategik boshqaruvni faqat rejalashtirish emas, balki shakllanuvchi strategiyalar, tashkiliy tajriba va boshqaruv qarorlarining uzviy birligi sifatida asoslagan [3]. R. Kaplan va D. Norton esa strategik maqsadlarni aniq ko'rsatkichlar orqali baholashga imkon beruvchi Balanced Scorecard konsepsiyasini taklif qilib, strategiyani amalga oshirish va monitoring qilish mexanizmlarini rivojlantirgan [4]. D. Tis tomonidan ishlab chiqilgan dinamik qobiliyatlar nazariyasi korxonalarning tez o'zgarayotgan muhitda resurs va kompetensiyalarini yangilash orqali strategik barqarorlikka erishish imkoniyatlarini ochib bergan [5].

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham korxonalarni strategik boshqarish, raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanish masalalari tadqiq etilgan. Akademik Q. X. Abdurahmonovning ilmiy ishlarida korxonalar samaradorligini oshirishda inson kapitali, boshqaruv salohiyati va strategik qarorlarning ahamiyati asoslab berilgan [6]. Sh. N. Mustafoulov iqtisodiyot tarmoqlari va korxonalarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda innovatsion va institutsional omillarning o'rini tahlil qilgan [7]. R. A. Isayevning sanoat korxonalarda sifat menejmenti va strategik boshqaruv integratsiyasiga bag'ishlangan maqolasi chop etilgan. Maqolada strategik rejalashtirish, korxona muhitini tahlil qilish, missiya va maqsadlarni belgilash, strategik axborot bilan ta'minlash masalalari yoritilgan [8]. G. Qurbonovning sanoat korxonalari resurs tejamkorligi strategiyasiga bag'ishlangan maqolasi e'lon qilingan. Unda korxonaning bosh strategiyasi, uzoq muddatli rivojlanish rejasi, tashqi muhit o'zgarishlari, resurslardan samarali foydalanish va strategiyani shakllantirish masalalari tahlil qilingan [9].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda strategik boshqaruvning alohida jihatlar — raqobat strategiyasi, strategik rejalashtirish, samaradorlikni baholash, innovatsion rivojlanish va dinamik qobiliyatlar keng yoritilgan. Shu bilan birga, korxonalarning strategik rivojlanishini boshqarishda tashqi muhit omillari, ichki strategik salohiyat, resurslar, innovatsiyalar va boshqaruv qarorlarini yagona tashkiliy-iqtisodiy mexanizm doirasida integratsiyalash masalalarini kompleks tadqiq etish ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni



yanada rivojlantirish imkonini beradi. Shu bois mazkur tadqiqotda korxonalarning strategik rivojlanishini boshqarishning nazariy-uslubiy asoslarini tizimlashtirish va ularni integratsiyalashgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm asosida takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Korxonalarning strategik rivojlanishini boshqarishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish, iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalarning strategik rivojlanishini boshqarish korxonaning uzoq muddatli maqsadlarini belgilash, ichki salohiyatini baholash, tashqi muhit o'zgarishlariga moslashish va mavjud resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan boshqaruv jarayoni hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda raqobatning kuchayishi, texnologik o'zgarishlarning tezlashishi va bozor talabining o'zgaruvchanligi korxonalarda strategik boshqaruvning nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirishni talab etmoqda.

Strategik rivojlanishni faqat moliyaviy natijalarning o'sishi bilan baholash strategik rivojlanishning barcha jihatlarini to'liq aks ettirmaydi. Korxonaning uzoq muddatli barqarorligi moliyaviy natijalar bilan bir qatorda, innovatsion, texnologik, investitsion, kadrlar va tashkiliy salohiyatga ham bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, strategik rivojlanish korxonaning ichki imkoniyatlarini tashqi muhit talablari bilan muvofiqlashtirish asosida raqobat ustunliklarini shakllantirish jarayoni sifatida qaralishi lozim.

Ilmiy adabiyotlar tahlili korxonalar strategik rivojlanishini boshqarishda tizimli, resursga asoslangan, raqobat va dinamik qobiliyatlar yondashuvlari muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval

Korxonalar strategik rivojlanishini boshqarishga asosiy nazariy yondashuvlar¹

Yondashuv	Asosiy mazmuni	Strategik ahamiyati
Tizimli	Korxona va tashqi muhitning o'zaro bog'liqligi	Kompleks boshqaruvni ta'minlaydi
Resursga asoslangan	Ichki resurs va salohiyatdan foydalanish	Raqobat ustunligini shakllantiradi
Raqobat	Bozor va raqobat muhitini baholash	Bozor mavqeyini mustahkamlaydi
Dinamik qobiliyatlar	O'zgarishlarga moslashish va resurslarni qayta shakllantirish	Strategik moslashuvchanlikni oshiradi

Jadvaldan ko'rinadiki, har bir yondashuv strategik boshqaruvning muayyan jihatini ochib beradi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda mazkur yondashuvlarni o'zaro uyg'unlashtirgan holda qo'llash korxona rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni yanada kengroq qamrab olish imkonini beradi. Shu sababli strategik rivojlanishni boshqarishda ularni integratsiyalashgan holda qo'llash maqsadga muvofiq.

Korxonaning strategik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni ichki va tashqi omillarga ajratish mumkin. Ichki omillar korxonaning bevosita boshqaruv imkoniyatlarini ifodalasa, tashqi omillar korxona faoliyatiga ta'sir etuvchi, ammo uning nazoratidan tashqarida bo'lgan iqtisodiy va institutsional sharoitlarni qamrab oladi (2-jadval).

2-jadval

Korxonalarning strategik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar²

Omillar guruhi	Asosiy omillar	Strategik ta'siri
Moliyaviy-iqtisodiy	Rentabellik, likvidlik, investitsiya imkoniyatlari	Moliyaviy barqarorlik
Ishlab chiqarish	Quvvatlardan foydalanish, mehnat unumdorligi	Ishlab chiqarish samaradorligi
Innovatsion-texnologik	Yangi texnologiyalar, innovatsiyalar, raqamlashtirish	Raqobat ustunligi
Kadrlar	Malaka, kompetensiya, mehnat unumdorligi	Inson kapitali salohiyati
Bozor	Talab, raqobat, bozor ulushi	Bozordagi strategik mavqe
Investitsion-institutsional	Investitsion muhit, davlat siyosati	Rivojlanish imkoniyatlari

1 Muallif ishlanmasi

2 Muallif ishlanmasi



Ushbu omillarning o'zaro ta'siri korxonaning strategik rivojlanish natijalarini belgilaydi. Masalan, innovatsion salohiyatning yuqori darajasi uning moliyaviy resurslar va malakali kadrlar bilan uyg'un ta'minlanishi orqali kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi. Shu bois strategik qarorlarni qabul qilishda omillarni alohida emas, balki o'zaro bog'liq tizim sifatida baholash zarur.

Korxonaning strategik rivojlanish darajasini obyektiv baholash uchun moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, bozor, innovatsion, texnologik, resurs va inson kapitali ko'rsatkichlarini qamrab oluvchi indikatorlar tizimidan foydalanish taklif etiladi (3-jadval).

3-jadval
Korxonalar strategik rivojlanishini baholash indikatorlari tizimi³

Indikatorlar bloki	Asosiy ko'rsatkichlar	Baholash maqsadi
Moliyaviy	Rentabellik, daromad o'sishi, aktivlar qaytimi	Moliyaviy barqarorlikni baholash
Bozor	Bozor ulushi, sotuv dinamikasi	Raqobatbardoshlikni aniqlash
Innovatsion	Yangi mahsulotlar, innovatsion loyihalar	Innovatsion salohiyatni baholash
Texnologik	Avtomatlashtirish, raqamlashtirish	Texnologik yetuklikni aniqlash
Resurs	Mehnat unumdorligi, resurs qaytimi	Resurslar samaradorligini baholash
Inson kapitali	Malaka, kompetensiya, kadrlar barqarorligi	Kadrlar salohiyatini baholash

Mazkur indikatorlar asosida korxonaning strategik rivojlanish darajasini kompleks baholash mumkin. Bunda ko'rsatkichlarni normallashtirish va ularning strategik ahamiyatidan kelib chiqib, salmoq koeffitsiyentlarini belgilash orqali integral strategik rivojlanish indeksi shakllantiriladi. Ushbu indeks korxonalarni strategik rivojlanish darajasi bo'yicha qiyosiy baholash, mavjud rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash va ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. Korxonalar strategik rivojlanishini boshqarishning integratsiyalashgan jarayon sxemasi⁴

3 Muallif ishlanmasi

4 Muallif ishlanmasi



Bunda strategiyani ishlab chiqish va uni amalga oshirish yagona boshqaruv sikli sifatida qaraladi. Monitoring natijalari asosida strategik maqsadlar, resurslar va boshqaruv qarorlarini qayta ko'rib chiqish korxonaning o'zgaruvchan tashqi muhitga moslashuvchanligini oshiradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish strategik qarorlarning axborot ta'minotini kuchaytirib, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruvni shakllantirish imkonini beradi. Tahlil natijalari korxonalar strategik rivojlanishini boshqarishda tizimli, resursga asoslangan va dinamik yondashuvlarni integratsiyalash zarurligini ko'rsatdi. Taklif etilayotgan yondashuv korxonaning ichki salohiyati va tashqi muhit omillarini uyg'unlashtirish, strategik maqsadlarni aniq indikatorlar bilan bog'lash hamda boshqaruv qarorlarining natijadorligini muntazam baholash imkonini beradi. Bu esa korxonalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligi va barqaror strategik rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari korxonalarning strategik rivojlanishini boshqarishda an'anaviy rejalashtirish yondashuvini tizimli va integratsiyalashgan boshqaruv modeli bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatdi. Strategik rivojlanish korxonaning nafaqat moliyaviy natijalari, balki uning innovatsion, texnologik, investitsion, ishlab chiqarish va inson kapitali salohiyati bilan ham belgilanishi aniqlandi. Shu sababli strategik qarorlarni qabul qilishda ichki imkoniyatlar bilan bir qatorda, tashqi muhitdagi o'zgarishlar, raqobat darajasi va bozor konyunkturasini kompleks baholash maqsadga muvofiq.

Korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish, strategik maqsadlarni KPI ko'rsatkichlari bilan bog'lash va boshqaruv qarorlarini ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilish strategik boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlari sifatida belgilandi. Mazkur takliflarni amaliyotga joriy etish korxonalarning resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, tashqi muhit o'zgarishlariga moslashuvchanligini kuchaytirish va uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Korxonalar strategik rivojlanishini boshqarishning integratsiyalashgan mexanizmini joriy etish, bunda tashqi muhit tahlili, ichki salohiyatni baholash, strategik maqsadlashtirish, resurslarni taqsimlash va natijalar monitoringini yagona boshqaruv sikliga birlashtirish.

2. Strategik rivojlanishning integral indeksini shakllantirish. Unda moliyaviy, bozor, innovatsion, texnologik, resurs va inson kapitali ko'rsatkichlarini hisobga olish orqali korxonaning strategik holatini kompleks baholash taklif etiladi.

3. Strategik maqsadlarni KPI tizimi bilan bog'lash orqali strategiya ijrosini muntazam baholash va belgilangan maqsadlarga erishish darajasini o'z vaqtida aniqlash mexanizmini joriy etish.

4. Raqamli boshqaruv vositalaridan foydalanishni kengaytirish, ya'ni korxona faoliyatiga oid moliyaviy, ishlab chiqarish, marketing va kadrlar ma'lumotlarini yagona axborot muhitida integratsiyalash orqali ma'lumotlarga asoslangan strategik qarorlar qabul qilishni ta'minlash.

Mazkur takliflarni amaliyotga joriy etish korxonalarning strategik qarorlar qabul qilish sifatini oshirish, resurslardan foydalanish samaradorligini yaxshilash, o'zgaruvchan tashqi muhitga moslashuvchanlikni kuchaytirish va uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Porter M. E. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. – New York: Free Press, 1980.
2. Ansoff H. I. Corporate Strategy. – New York: McGraw-Hill, 1965.
3. Mintzberg H., Ahlstrand B., Lampel J. Strategy Safari. – New York: Free Press, 1998.
4. Kaplan R. S., Norton D. P. The Balanced Scorecard. – Boston: Harvard Business School Press, 1996.
5. Teece D. J. Dynamic Capabilities and Strategic Management // Strategic Management Journal. – 1997.
6. Abduraxmonov K. X. va boshq. Sovremennyy menedjment i reformirovanie sistemy obrazovaniya v Uzbekistane. – T.: Izd-vo REA im. G. V. Plexanova, 2005. – 240 s.
7. Mustafaq ulov Sh. I. Theoretical, Methodological, and Practical Interpretation of Investment Attractiveness. – Tashkent: Manaviyat, 2021. – 352 p.
8. Isayev R. A. Sanoat korxonalarining sifat menejmenti tizimi va strategik boshqarish integratsiyalashgan tizimining axborot ta'minotini yaxshilash // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021. – № 6.
9. Qurbonova G. Resurs tejamkorligi bo'yicha sanoat korxonalarining strategiyasi // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: TDIU, 2020.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>